**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA**

**MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOShKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**Kasb ta’limi fakul’teti**

**«Himoyaga ruxsat etilsin»**

**Kasb ta’limi fakul’teti dekani**

**______ Ya. U. Ismadiyarov**
**«___»_______________2016 y.**

**5110800 – “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” ta’lim yo’nalishi 4-bosqich guruh talabasi**

**Mambetova Mohinur Aybek qizi**

# *BITIRUV MALAKAVIY ISHI*

**Mavzu: “Bahor manzarasi” mavzusida kompozitsiya ishlash**

**Talaba: ______M.Mambetova**

**Ilmiy rahbar: _______ katta o’qituvchi N.Abdusalomxo’jayev**

**Taqrizchi: _______U.Xakimov**

**Taqrizchi: _______Sh.Nazirbekova**

**«Himoyaga tavsiya etilsin»**

**Tasviriy san’at va uni o’qitish metodikasi**
**kafedrasi mudiri ______dots. R.Sh.Xalilov**

**Toshkent 2016**

Kirish

1-BOB KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA O’QUVCHILIRGA TASVIRIY SAN’AT ASOSLARINI O’RGATISH NAZARIYASI

1.1. Tasviriy san’atda manzara janri va o’quvchilarni unda ijod etgan rassomlar asarlarini tahlil qilishga o’rganishnning pedagogik asoslari.

1.2. O’quvchilarni tasviriy san’atda kompozitsiya tuzishga o’rgatishning nazariy asoslari

2-BOB KASB-HUNAR KOLLEJLARI O’QUVChILARINI MANZARA KOMPOZITSIYASINI CHIZISHGA O’RGATISH METODIKASI

2.1. 1.2. O’quvchilarga rangtasvir kompozitsiyasini o’rgatishda uning asosiy qonun-qoidalaridan foydalanish

2.2. O’zbek va chet el manzarachi rassomlar ijodida mavzuli kompozitsiya va unda tasviriy san’at qonun-qoidalaridan foydalanish metodikasi

3 BOB. O’RTA MAXSUS TA’LIM TIZIMIDA O’QUVChILARNI MANZARA KOMPOZITSIYASINI TASVIRLAShGA O’RGATIShDA ILG’OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYaLARDAN FOYDALANISh BO’YIChA OLIB BORILGAN TAJRIBA SINOV IShLARI

**3.1.** Tasviriy san’at mashg’ulotlarini o’tishda zamonaviy axborot texnologiyalari va ilg’or pedagogik texnalogiyalardan foydalanish

Xulosa

Glossariy

Adabiyotlar ro’yxati

# KIRISh

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi**. Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan kundan boshlab barcha sohalarda, ayniqsa, ta'lim tizimini isloh qilish borasida juda katta ijobiy o'zgarishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, 1997 yilning 29 avgustida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu qonunlarda yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda tarbiyaning boshqa turlari qatorida estetik tarbiyaning va uning tarkibidagi tasviriy san'atning ahamiyatiga katta e'tibor qaratilgan. Zero, Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Hozirgi kunda milliy ma'naviyatimiz rivojini tasviriy san'at namunalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi"[1].

Ta'limning umumiy o'rta ta'lim bosqichida o'quvchilarga tasviriy san'at asoslarini o'rgatish oliy ta'limda kasbiy shakllangan etuk tasviriy san'at o'qituvchilari zimmasiga tushadi. Bunda juda ko'p narsa umumiy o'rta ta'lim turi uchun bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlaridagi o'quv jarayoni va uning mazmuniga bog'liqdir. Olib borilgan kuzatish ishlari shuni ko'rsatdiki, hozirda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga tasviriy san'at fanidan saboq berayotgan o'qituvchilarining kasbiy bilimlari zamon talablari darajasida shakllanmagan.

Talabalarning mustaqil ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, ularda egallayotgan kasblariga oid mavjud muammolarni mustaqil hal qilishga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirishni taqozo qilmoqda. Xususan, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda barcha fanlar bilan bir qatorda ayniqsa, ixtisoslikning rangtasvir, kompozitsiya fanlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy o'quv yurtlarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini ta'minlovchi tasviriy san'at turkumidagi barcha fanlar, xususan

[1] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч.—Т: "Маънавият", 2008. – 176 б.

ixtisoslik fanlar blokiga kirgan akademik qalamtasvir asoslari va kompozitsiya, dasgohli akademik rangtasvir asoslari va kompozitsiya fanlarining nazariy asoslarini, amaliy jihatlarini mukammal o'rgatish va uni o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish hamda amalda tadbiq qilish mazkur kasb egalarini kasbiy va pedagogik faoliyatga puxta tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim rol o'ynovchi sub'ektlar sirasida o'qituvchi va uning roli yuqori qadrlangan. Bizning yurtmizda asrlar davomida o'qituvchi shaxsiga nisbatan alohida hurmat ko'rsatilgan. O'z navbatida, uning kasbiy tayyorgarligiga katta e'tibor berilgan va unga yuksak talablar qo'yilgan. Ana shunday talablar mohiyati ilk yozma manba sanaluvchi "Avesto", Islom dinining muqaddas manbalaridan biri bo'lgan "Hadis", shuningdek, ulug' mutafakkirlar–Abu Nasr al Forobiy, Aburayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muslixiddin Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va boshqa ko'plab allomalar tomonidan yaratilgan asarlar mazmunida ham o'z ifodasini topgan.

Uzluksiz pedagogik ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsini kasbiy tayyorlash, o'quv-tarbiya jarayonida kasbiy madaniyatni milliy qadriyatlar asosida shakllantirish, pedagogik turkum fanlarni o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik madaniyatini tarbiyalash, shuningdek, pedagogik mahoratni qaror toptirish masalalari ko'plab etuk olimlar tomonidan olib borilgan.

Ta'lim tizimi uchun, xususan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash muammolari bilan bog'liq bo'lgan texnologik yondashuvlar B.S.Kuzin, B.Oripov, N.Oydinov, N.N.Rostovtsev, T.Ya.Shpikalova kabilarning tadqiqotlarida o'rganilgan. Biroq, globallashuv jarayonida, bilim olish shakl va usullari yangi texnologiyalar bilan boyitilayotgan bir davrda yangi tadqiqotlar ko'proq qiziqish uyg'otadi. Shu ma'noda keyingi yillarda bajarilgan dissertatsiya ishlarida bu muammoning echimida yangi ilmiy xulosalar taqdim etib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi milliy san'ati vositasida tasviriy san'at

o’qituvchilari tayyorlashning nazariy asoslari, shuningdek, tasviriy san’at o’qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik jihatlari A.Sulaymonov tomonidan, hamda Respublikamiz olimlari tomonidan ko’plab shu kabi ilmiy ishlar tadqiq etilgan bo’lsa-da, aynan ixitsoslik fanlarini o’qitish metodikasini ishlab chiqish orqali tasviriy san’at o’qituvchilarini kasbiy tayyorlash masalasi maxsus tadqiqot ob’ekti sifatida o’rganilmagan. O’zbekiston sharoitida bu omilning o’ziga xos xususiyatlari, milliy-tarixiy negizlari hamda zamonaviy yondashuvlari mavjudligi bois ham bu yo’nalishda maxsus tadqiqot o’tkazishni taqazo etadi.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi.** Pedagogik oliy ta’lim muassasalarida yoshlarni manzara kompozitsiyasini ishlashga o’rgatishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishning ob’ekti.** Respublikamizda kadrlar tayyorlash milliy modelini amaliyotga tatbiq etish sharoitida oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilarini kasbiy tayyorlashda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o’qitish metodikasi.

**Bitiruv malakaviy ishning predmeti.** Kasb hunar kollejlari o’quvchilariga qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o’qitishning nazariyasi.

**Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:**

1. KHK muassasalarida bo’lajak tasviriy san’at o’quvchilarini tayyorlash jarayoni va qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o’qitilish holatini o’rganish va tahlil qilish.

2. KHK muassasalarida tasviriy san’at o’quvchilarini kasbiy tayyorlashda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o’qitishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish.

3. KHK muassasalarida tasviriy san’at o’quvchilarini kasbiy tayyorlashda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o’qitishning samarali shakl va vositalarini ishlab chiqish.

4. Qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning ko'rsatkich va mezonlarini ishlab chiqish.

5. KHK muassasalarida tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o'qitish metodikasi bo'yicha metodik ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotda sinab ko'rish.

**Bitiruv malakaviy ishning metodlari.** Tadqiqot muammosiga bag'ishlangan ilmiy-metodik adabiyotlarni, jumladan, dissertatsiya ishlarini o'rganish va tahlil qilish; ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va umumlashtirish; o'quv vositalari mazmunini tahlil qilish; pedagogik kuzatish, qiyoslash, umumlashtirish, so'rovnomalar, suhbatlar, test sinovlari o'tkazish hamda o'zlashtirishning reyting tizimidan foydalanish; sinov darslarini o'tkazish; tadqiqot mavzusiga oid ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar asosida pedagogik tajribalar o'tkazish; olingan natijalarni matematik-statistika metod yordamida qayta ishlash hamda natijalarning ishonchliligi va asosliligini aniqlash.

**Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi.** O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, uzluksiz ta'lim tizimini va kadrlar tayyorlash jarayonini tashkillashtirish va boshqarishni belgilab beruvchi direktiv va me'yoriy hujjatlar; barkamol shaxs rivojlanishi hamda uning kasbiy shakllanishi; shaxsning psixologik va fiziologik rivojlanish qonuniyatlari; nazariya va amaliyotning birligi; tizimlilik; jarayon va hodisalarning dialektik taraqqiyoti determinatsiyasi; ilmiy bilishning birligi; ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyasi g'oyalari xizmat qilgan.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi:**

- KHK muassasalarida tasviriy san'at o'quvchilarini kasbiy tayyorlashda ixtisoslik fanlarini o'qitishga nisbatan qo'yiladigan talablarni asoslash;

- KHK muassasalarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda ixtisoslik fanlarini o'qitishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqilishi;

- KHK muassasalarida tasviriy san’at o’quvchilarini kasbiy tayyorlashda ixtisoslik fanlarini o’qitishning samarali shakl va vositalarini ishlab chiqilishi;

- ixtisoslik fanlarini o’qitish jarayonida talabalarning Egallashlari lozim bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarini baholashning ko’rsatkich va mezonlari ishlab chiqilishi bilan belgilanadi.

**Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati:**

Ixtisoslik fanlarini o’qitish jarayonida KHK muassasalarida tasviriy san’at o’quvchilarini kasbiy tayyorlashning samarali shakl va metodlari ishlab chiqiladi hamda ilmiy jihatdan asoslanadi.

# 1-BOB. KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA O'QUVChILIRGA TASVIRIY SAN'AT ASOSLARINI O'RGATISh NAZARIYaSI

## 1.1. Tasviriy san'atda manzara janri va o'quvchilarni unda ijod etgan rassomlar asarlarini tahlil qilishga o'rganishnning pedagogik asoslari.

Manzara - tasviriy san'atning qadimiy janrlaridan bo'lib, tarixiy maishiy asarlarda ham vosita - fon sifatida muhim rol uynaydi. Qadimgi xitoy san'atida rassomlar tabiatni aks ettiruvchi asarlar yaratganlar.[2]

Manzara asarida inson shaxsi, aql zakovatini, ichki tuyg'ularini tasvir orqali qo'shiq qilib kuylaydi va tabiat obrazini yaratadi. Tasviriy san'atdagi manzara janriga oid asarlar insonda tabiatga muxabbat va go'zallik fazilatlarini shakllantiradi. Rassomlar tarixiy va maishiy mavzudagi asarlarda bevosita manzaraga ham murojat qiladilar, etyud, eskizlar yozadilar. Bu holda manzara kartinada qo'shimcha fon vazifasini o'taydi.

Urushdan keyingi yillarda muntazam tashkil etilgan Respublika, sobiq ittifoq badiiy ko'rgazmalar O'zbekiston tasviriy san'atiga ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Tabiatni yangicha his etish, yangicha talqin qilish hissiyoti paydo bo'la boshladi. Rassom sanoat, shahar, lirik manzaralarni aks ettirmasin tabiatga ishtiyoqi ortib bordi.

Manzara janri tarixi XVI – XVII asrlarda taraqqiy etdi. Gollandiya manzarachi rassomlari tabiatni o'xshatib haqqoniy tasvirlashda katta muvaffaqiyatlarga erishdilar.

Rossiyada manzara janrining rivojlanishi XVIII asrga tugri keladi. Moskva, Peterburg arxitektura yodgorliklari F.E. Alekseev tomonidan mahorat bilan tasvirlangan. Manzara san'ati tashqi dunyoning go'zalligini aks ettirish bilan insonga ijobiy ta'sir etuvchi kuchga ega. Shuning uchun rassom tabiat olamini eng nozik, tipik holatlarini, rang garmoniyalarini anglab, tabiatga nisbatan bo'lgan estetik munosabatini bildiradi.

XX asrni 50 nchi yillari o'zbek manzara janrida O'rol Tansiqboev karvonboshi bo'lib qoldi. Qishloq xo'jalik tematikasiga oid asarlar yarata boshladi.

---

[2] Ғ.Абдураҳмонов. Композиция. Ўқув қўлланма. ТДПУ 2005.152 б.

1950 yili «O’zbekistonda bahor», «Paxtani sug’orish» asarini yaratdi. Erta bilan esayotgan mayin shabada va shildirab oqayotgan suv, salqin tabiatni uyg’onishi tomoshabinda quvonchli hissiyotni uyg’otuvchi ta’sirchan vositadir. Hayotni ob’ektiv qonunlari va inqilobiy rivojlanishini epik holatda yuzaga kelishi «Ona o’lka» asarida (1951 y) o’z aksini topdi. Kompozitsiya echimini panorama usulida echish, rassom ijodining xarakterli nuqtalaridan bo’lib qoldi. Ayniqsa cho’lni ochishga bag’ishlangan «Taxna-Tashu» va «Issiq ko’l» nomli asarlarida namoyon bo’ladi. Manzara kompozitsiyasini panorama usulida tasvirlash rassomga xos xususiyatlardan biridir.

«Qayraqum GES tongi» (1957 y) eng yaxshi industrial manzara asarlaridan biri deb tan olingan. (B.V. Veymarn, U. Tansiqboev Moskva Izd. Iskusstva 1958 g). Asar 1957 yili Moskvada sobiq ittifoq ko’rgazmasida va Bryuseldagi ko’rgazmada namoyish etilib kumush medal bilan taqdirlangan. Hozir u Moskvadagi Sharq xalqlari Davlat san’at muzeyida saqlanmoqda. Oldimizda katta keng gidroelektrostantsiyani qurilishi panoramasi, orqasida biryuza rangli qayroqum dengizi yoyilgan kompozitsiya markazi ham gidrostantsiya qurilishi. Qurilishi hali nihoyasiga etmagan. Tepalikdagi buldozer, to’g’on ustidagi kranlar, oldingi plandagi qumli do’ngliklar, to’g’on orqasidagi cho’l manzarasi, cho’lda hosil bo’layotgan mo’’jizani eslatadi. Eng asosiysi qayroqumda haqiqatni poetik talqin etilishi bilan manzara asarida mahoratini ko’rsata bilgan. Yorqin dekorativ iliq, sovuq tuslardagi kontrast pushti, tilla, ko’k biryuza ranglarda go’zal tabiatni bepoyon kengligidagi qaynoq hayot o’z aksini topgan.

Dengiz sathidagi quyosh nurlarida yarqirab turgan o’ynoqi bliklar rassom tomonidan juda katta mahorat bilan tasvirlab berilgan.

U.Tansiqboev Respublika industriyasini rivojlanishiga bag’ishlangan ko’plab asarlar yaratdi. «Almaliqda» 1958 y., «Tsement zavodi» 1960 y., «Charvak GES qurilishida» 1969-1970 y. asarlari shular jumlasidandir.

Ural Tansiqboev diapazoni keng rassom. U tabiatni aks ettiribgina qolmay, balki undagi inson qo’li, aql-zakovati orqali bo’layotgan o’zgarishlar tasvirlanadi. Sobiq SSSR badiiy akademiyasining muxbir a’zosi. O’zbek tabiat manzara

san’atining kuychisi Ural Tansiqboevni ko’p asarlari Moskvadagi Tretyakov gallereyasi, O’zbekiston Davlat san’at muzeylarida saqlanmoqda.

40-50 yillardagi o’zbek manzara san’atining yana bir vakili bu Nikolay Qoraxondir.

Dastlabki ijodida qishloq hayoti, keng dalalar, yo’llar, mehnatkash xalq hayoti asosiy mavzu bo’lsa, keyinchalik tabiatga chiroy ochayotgan yirik inshoatlar, industriya manzaralaridan tashkil topdi. Uni xalqni farovon hayoti, mehnat jarayoni ko’proq qiziqtirdi «Zavod trubalari» 1929 y, «Ishga ketayaptilar» (1934 y.) shular jumlasidandir.

50 yillarga kelib rassom ijodida Tog’ mavzusi asosiy o’rin egalladi. Ko’proq bahor, kuz, tabiatni erta-kechqurun paytlarini dekorativ ko’k, yashil, sariq, qizil ranglarda jozibali qilib tasvirladi. Tog’ning jo’shqin ohanglarini «Nanayga yo’l» 1954 y. «Amu Daryada» 1957 y, «Elektrostantsiya» 1957 y. asarlarida ko’rishimiz mumkin.

1958 yillarga kelib rassomning yangi ijodiy qirralari ochila boshladi. Buni «Gullayotgan Vodiy» asari misolida ko’rish mumkin. Bahor, tabiat bayram libosida. Binafsha rangli tog’ fanida gullab turgan oq pushti, sariq oq ranglardagi daraxtlar, bepoyon dalalarga gilam yozgan yashil maysalar, go’zal tabiatga chiroy ochib, insonga qanchadan qancha shodlik va quvonch baxsh etadi. Asarda rang koloriti echimi asosiy rol o’ynaydi. Esayotgan mayin shabbada, tizma tog’lar, sariq, tilla rangdagi bug’doyzorlar bunga misol bo’laoladi. Sariq mayin tilla kaloritda yozilgan «Oltin kuz» (1962 y), «Tog’da kuz» (1959 y), «Oltin simfoniya» (1962 y), «Toshkentda kuz» (1967y) asarlarida Nikolay Qoraxon odil fikrli etuk manzarachi rassom sifatida namoyon bo’ladi.

Rangli beqasamga o’ralgan tabiat qo’yniga berkilgan tog’ yonbag’ridagi qishloq, quyosh nurida jilvayotgan daraxtlar orasidagi burma yo’llardagi odamlar qiyofasi, ertak manzarasini eslatadi. O’sha davrdagi keksa rassomlar O. Tatevosyan, M. Novikov, A. Volkovlar manzara janrida ijod qilib, O’zbekiston tabiati va hayotdagi sodir bo’layotgan yangiliklarni aks etdirdilar. Z. Kovalevskaya, Z.

Inog'amov, N. Qo'ziboev, K. Bogaduxov, G. Ulko, M. Esin, N. Shurigin kabi rassomlar O'zbekiston tabiatini aks ettiruvchi lirik manzara asarlarini yaratdilar.

P. Benkov metodikasini yaxshi egallagan shogirdi A. Roziqovni «O'zbek hovlisi» (1947 y), «Sher Dor hovlisida» (1950 y), «Samarqandda bahor» (1958 y) kabi asarlari Benkovni eslatadi.

Rashid Timurov go'zal Samarqandni kuylagan etakchi rassomlar qatoriga kiradi. U shu shaharda yashab, ko'p asrli qadimiy yodgorliklarni, gullagan bog'larni, hayotni sevib tabiat go'zalligidan ilhomlanib ijod qildi. «Samarqand bog'lari» (1946 y. GMI), «Bibi-xonim maydoni, bahor» asarlarida sokinlik, xalqni bayram tarannumi ifoda etilgan.

Samarqanddagi «Shohi-Zinda», «Xazrat Xizar», «Ulug'bek madrasasi», «Afrosiyob» yodgorliklarini sevib tasvirlagan Rashid Timurov manzarachi rassom sifatida tabiatni yaxshi his etardi. U «Samarqand» (1958 y GMI) asarida ko'rish nuqtasini juda to'g'ri topgan, panorama ko'rinishida tasvirlangan yodgorliklar chuqur falsafiy fikrlashga chorlaydi. Har bir rassom, har bir avlod o'z davrida manzara janrida ham o'zini sinab ko'radi, lekin hammalari ham manzarani yaxshi his eta olmaydi. Manzarachi rassom bo'la olmaydi. Tabiatni vujudi bilan his etib sevgan malakali rassomgina o'z his-tuyg'ularini manzara tasvirida ifodalab beradi. Ko'plab keksa avlod rassomlari bizlarga go'zal manzara asarlarni yaratib meros qoldirganlar. Ular yaratgan san'at asar mazmunini kompozitsiya tuzilishini, ularni ish tajribalarini yoshlarga o'rgatib, ko'rgazmali vosita sifatida foydalanish o'rinlidir.

70-80 yillarda G'. Abdurahmonov, F. Toxirov, R. Choriev, K. Bogoduxov, M. Esin, Pudovkin kabi rassomlar manzara janrida samarali ijod qildilar. Hozirgi vaqtda ko'plab izlanuvchi iqtidorli rassomlar, A. Nuritdinov, O. Qozoqov, 3. Islomshikov, A. Mo'minov, A. Mirsoatov kabilar mustaqil O'zbekiston go'zal tabiatini madh etuvchi maftunkor manzaralarni yaratib kelmoqdalar.

Manzaraning bir necha turlari mavjud: Shahar (Arxitektura), qishloq (tog') manzara, sanoat (zavod, fabrika, inshoat qurilish), tarixiy, romantik, lirik, panorama

(ko’rinishida) manzaralari shular jumlasidandir. Bularni har biri negizida ifodalovchi mazmun, g’oya yotadi.

Shahar manzarasida shahar hayoti bilan bog’liq, arxitektura, transport vositalari, odamlar, oromgoh boglar hamda er osti o’tish joylari kompozitsiya tasviri uchun misol bo’la oladi.

Qishloq manzarasi, bepayon kenglik, tog manzarasi, yaylovlar, qoya tosh, o’simliklar, vodiydagi jilvakor suvlar tasviri kompozitsiya negizini tashkil etadi. Sanoat manzarasi katta zavod hovlisi, suv ombori, ko’prik, metro qo’rilishi, texnika qurilish vositalari bilan bog’langan.

Lirik manzarada tabiatni «Erta tong», «Bahor» kabi mavzudagi tabiatni nozik, sokin go’zalligani, uning uyg’onish holatini aks ettiruvchi, insonga olam - olam quvonch baxsh etuvchi asarni ko’z oldimizga keltiramiz. Manzaraning kompozitsiya vositalari (belgilari): joyni tanlash, ko’rish nuqtasi, ko’rish chizigi, fazoviy masofa, format, perbspektiva, ritm, kolorit, yorug’, refleks, kompozitsiya markazi shular jumlasidandir.

Bu janrda kompozitsiya yaratish uchun, qalamtasvir rangtasvir sohalarida mukammal bilimga ega bo’lish kerak. Naturadan dastlabki chizilgan chizgi rangli etyudlar manzara kompozitsiyasini tuzishda asosiy mavzu bo’lishi mumkin. qishloq manzarasini kompozitsiyasini tasvirlamoqchi bo’lsak avval tabiatda quyoshli, bulutli kunlar, peshin, oqshom holatini harakterli xususiyatlarni sinchiklab kuzatish lozim.

Formatni aniqlab, ufq chizig’i, ko’rish nuqtasini belgilab olish kerak. So’ngra havo va erni tekislikda nisbatlarni belgilab, oldingi, keyingi orqa planni va predmetlar masshtabini topish darkor. Kompozitsiyani bir necha variantlarini sangina, ko’mir kabi yumshoq materiallarda bajarish tavsiya etiladi. Bajarilgan xomaki eskiz variantini rangda tasvirlash asar koloritni aniqlashga yordam beradi. Sifatli bajarilgan eskiz asosida manzara kompozitsiyani yakuniy nushasini amalda bajarish kerak. Uni qog’oz, karton, xolst, akvarel, guash, moybo’yoq orqali amalga oshiriladi.

Bo’lajak rassom uchun hayotni kuzatish, mavzu yuzasidan kundalik qalamchizgi va etyudlarni bajarish mashqlarni qilishga kirishsa maqsadga muvofiq

ish bo'ladi. Manzara janridagi asarlar inson uchun ma'naviy oziqa beradi, uni ruhlantiradi, hayotga shodlik va quvonch bag'ishlaydi.

## 1.2. O'quvchilarni tasviriy san'atda kompozitsiya tuzishga o'rgatishning nazariy asoslari

Tasviriy san'atning barcha turlarida kompozitsiya bo'lganidek, maishiy janrda ham kompozitsiyaning barcha talablari mavjud bo'lib, mazmun va g'oya kompozitsiyada ma'lum vositalarda ochib beriladi. Bunda ko'rish nuqtasi ufq, fazoviy qisqarish, shuningdek kompozitsiya markazi, asosiy va ikkinchi darajali predmetlar yorug'ligi, to's, rang, kolorit munosabatlariga rioya qilishdan iborat. Perspektiva qonunlari, muvozanat, simmetriya, dinamika vazifalaridan to'g'ri foydalana bilish, kerak. Kompozitsiya tuzilishi xona chekkasi (interer) yoki ochiq havoda bo'lsada, asosiy o'rinni odam qiyofasining tasviri egallaydi. Rassomning hayotni kuzatishi natijasida bo'lgan mavzuga oid ko'plab bajarilgan xomaki chizgi, etyud, eskizlar kompozitsiya tuzilishiga asos bo'ladi.

Maishiy janrdagi tematik kartinani yaratish mazmun va goyani ochib beruvchi voqea bilan bog'liq va voqeani eng xususiyatli, qiziqarli nuqtasini tasvirlashni talab etadi.

Inson yashab turgan muhitda sodir bo'layottan voqealarni ifodalovchi bu janr qadim zamonlarda paydo bo'lgan. O'tgan asrning demokratik rassomlari halq hayotini astoydil haqqoniy, tasvirlab berganlar. Bunga I. Repinning «Yangi kuyovni kuzatish», E. Makovskiyning «Xiyobonda», V. Perovinning «Uchovlon» va boshqa suratlar o'ziga xos misol bo'la oladi. Yoshlarning kundalik hayoti, mehnati, o'qishi, tasviriy san'at maishiy janrning bir qator asarlarida o'z aksini topdi. V.Laktionovning «Frontdan xat» F.Reshetnikovning «Yana ikkimi», «Ta'tilga keldi» asarlarida vatanga muhabbat, maktab hayoti bilan bog'liq g'oyalar tasvirlangan.

Ikki, uch figurali kompozitsiya tuzish uchun uyda yoki ishxonada odamlarning mehnat qilish yoki dam olish jarayonida tasvirlash uchun uning kasbi, xarakterini, hayotdagi voqeaning qiziqarli holatini o'rganish lozim. Naturadan bajarish bilan bir qatorda hayoldan va tasavvur qilib ishlashni mashq qilishni odatga aylantirish kerak. Bularning bir nechasi badiiy ijod jarayonining o'sishiga,

tasavvurini boyitishda muhim vosita, bo'lib xizmat qiladi. Uzbek rassomlari 3. Kovalevskayaning «Teatr lojasida» N. Kashinaning «Doira chaluvchi qiz», R. Axmedovaning «Tushki dam olish», M. Saidovning «Ishga ketishyapti» kartinalari maishiy janrda ishlangan asarlardir.

Tasviriy san'atning rivojlanishi bilan birga rangtasvir sohasida yangi janrlar paydo bo'la boshladi va tarixiy asar tushunchasi shakllandi. Tarixda yuz bergan voqealarni o'zida aks etgiruvchi asarlar ko'pincha tarixiy kartina deb ataladi. U mustakil janr sifatida «Uyg'onish davri»da vujudga kelib, XIX asrda yanada keng rivojlandi. qaysi mavzuda asar yaratishdan qat'iy nazar, avvalo chuqur fikrlash lozim shu bilan birga qobiliyat, mahorat, go'zallik hissiyotini ishga solish ham zarur. Rassom ommaning go'zallik, estetik talablarini aks etgiruvchi va unga badiiy madaniyatni olib kiruvchi shaxsdir. Hayotiy voqealar tarixiy janr kompozitsiya echimida rassom tomonidan murakkab ijodiy taxlilidan o'tadi. Kompozitsiya qonunlariga amal qilib, tamoshabinga kartina mavzusini ochib berishga harakat qiladi. Rus san'atida bu janrning ko'zga ko'ringan namoyondalaridan biri Aleksandr Ivanov edi.Aleksandr Ivanov Peterburg badiiy Akademiyasini 1828 yilda rassomlarni rag'batlantirish jamiyatining oltin medali bilan tamomlagan. A.Ivanov 1830 yilda Akademiyaning persioneri sifatida Italiyaga jo'naydi vash u erning o'zida yigirma yildan ortiq ishlaydi. U o'z ijodini klassik nafis san'ati ruxida tarbiyalangan rassom antik mifologiya va xrestian dini syujetlari asosida boshlaydi. Biroq XIX asrning birinchi yarmida Evropa va Rossiyada yuz bergan revolyutsion voqealar, ilg'or rus kishilari Gertsen va Belinskiy g'oyalari Ivanovni dunyo qarashiga kuchli ta'sir qildi. Chernishevskiy bilan xayot, ijtimoiy voqealar, san'at xaqida qizg'in, samimiy suxbatlar Ivanov ijodiga barakali ta'sir ko'rsatdi.

Ivanov o'zining "Isoning xalqqa ko'rinishi" asari uchun ko'plab qalamtasvir, rangli etyudlar bajardi. Rassom sotsial zulmdan qutilish yo'llarini izlayotgan xalq taqdiridagi chuqur kechinmalari, rassomning uy-fikrlari tasvirdagi qo'llar obrazida yorqin ifodasini topgan. Rassom o'zining ishlangan etyudlarda insonning ruxiy o'zgarishlari xaqida xikoya qilar ekan, qullikdan qutilish to'g'risiadagi xush xabarni eshitgan kishilar yuzidagi birinchi tabassumni juda moxirona beraolgan.

A.Ivanovning insonni tabiat quchog'ida ochiq xavoda tasvirlashga intilishi rus tasviriy san'atida yangilik edi. Uning "Plyajdagi bolalar" etyudi "Isoni xalqqa ko'rinishi" surati uchun qo'shimcha material bo'lsa ham, tabiat quchog'idagi xolatni, nafis san'at jixatidan moxirona ishlanganligi, quyosh nuri yoritib turgan tabiatda dam olayotgan bolalar, bo'y baravar turli xolatlarda tasvirlangan. A.Ivanov ijodining g'oyaviy yo'nalishi, plener, realistik peyzaj, portret, syujetli kompozitsiya yaratishdagi rus sayyor rassomlari uchun badiiy maktab, ko'rgazmali bir namuna bo'lib xizmat qiladi. Chet ellik rassomlardan yana biri Vasiliy Surikovdir. U tarixiy nafis san'atning buyuk ustasi bo'lib uning "O'qchilar qatl etilgan tong" asari rassomning dastlabki eng yirik tarixiy asarlaridan biridir. Rassom bu asarida "tarix ruxini" badiiy ifodalab berishga intildi. «O'qchilar qatl etilgan tong» shular jumlasidandir. Bu asarda rassom xalq ommasini kuchga, jasoratta to'la jo'shqin isyonkor qalbli kishilarni tasvirlagan. Rassom asarda tarixiy shaxs Petr 1 obrazini ham ko'rsatadi. Uning boshqa asarlarida ham xalqning o'tmishi Ermak, Razin, Suvorov kabi tarixiy shaxslar obrazida o'zining badiiy ifodasini topgan. Uning «Boyarinya Morozova», «Ermakning sibirni zabt etishi», asarlarida xalq bilan davlat o'rtasidagi fojiali qarama - qarshiliklar aks ettirilgan. Rassomning tarixiy janrda ilgari surgan asosiy maqsadi, xalqning tarixiy shaxslar bilan bogliqligini ko'rsatish edi. Rassomning 1883 yilda yaratgan polotnosi "Menshikov Berezevada"deb ataladi. Unda insonning ruxiy kechinmalari nixoyatda chuqur va ta'sirli qilib ko'rsatilgan. V.Surikov o'z talantining kamolot cho'qqisiga chiqqan paytida "Boyarina Morozova" (1887) asarini yaratdi. Uning uchun uch yil material to'plagan. Rassom bu asarda eski din tarafdorlari bilan yangi din tarafdorlari o'rtasidagi kurashni tasvirlagan. Diniy ixtiloflar tomoni bo'lgan Morozovani qamoqqa olib borishmoqda. U xalq bilan xayrlashar ekan, uni eski dinga sodiq qolishga chaqiradi. Odamlar Boyarinaning chaqirig'iga turlicha munosabatda bo'ladilar. Masalan polotnoning o'ng tomonida tasvirlangan Moskva axli Morozovani achinish, qayg'u bilan kuzatadi.

Polotnoning chap tomonida tasvirlangan uning dushmanlari Boyarinani rosa kalaka qilib, achchiq istexzolar bilan ustidan kulishadi. Morozova obrazi ayniqsa ta’sirli chiqqan. Uni boshqa personajlar bilan taqqoslar ekanmiz, uning o’z e’tiqodiga mustaxkam ekanligi yanada ravshan va tushunarli bo’ladi. Bu o’rinda Morozovaning imo-ishoralarini takrorlayotgan devona bilan boyarinaning mutaassibligiga uchgan darvesh obrazlari juda xarakterlidir. Surikov suratda chuqur psixologizm,



jushqinlikka, ranglarning monand chiqishiga erishish uchun uzoq vaqt, mashaqqat chekib ishladi. Rassom Morozovaning obrazini topishda, ayniqsa ko’p qiynaldi, juda ko’p etyudlar ishladi, lekin ularning bittasi ham uni to’la qoniqtirmadi. Va nixoyat Uraldan qiroatxon bir ayol keldi va unga qarab etyud ishladi va boshqa etyudlardan ma’qul keldi.

Boyarina Morozova - tarixiy epopeyaning markaziy figurasidir. Surikov Morozova orqali irodali, o’z e’tiqodi, diniga qattiq ishongan odamning yorqin obrazini yaratdi. Kompozitsiyaning puxta o’ylanganligi: qaxramonlarning diogonal buyicha o’ng va chap tomonda joylashtirilishi, suratga yugurib borayotgan bolaning kiritilishi tufayli Surikov chanani qalin olamon orasidan g’izillab ketayotgandek tasvirlashga muvoffiq bo’ladi. Surat koloritiga xos bo’lgan qora va oq ranglarning uyg’unligi suratning qaxramona-fojiaviy temasini ochishga yordam beradi. Boshdan – oyoq qora kiygan boyarina Morozova ancha rang-barang, ko’rkam fonda bir qoramtir dog’ bo’lib, suratning ham kompozitsion, ham ma’naviy markazi bo’lib xizmat qiladi va diqqatimizni o’ziga tortadi.

Rassom I.Repin ijodida tarixiy janr muhim rol o'ynaydi. Uning uchta shox asari «Sofya», «Ivan Grozniy», «Zaporojliklar» kartinasining goyasi Moskva hayotidagi muhit, rus tarixiga berilib ketgan V.Vasnetsov, V.Polenov kabi rassomlarning ta'sirida yaratdi. Eng ahamiyatli «Ivan Grozniy va uni o'gli shaxzoda Ivan» (1885 y.), tarixiy kartinasini yaratishga Rimskiy Korsakovning Simfonik asarini musiqasi turtki bo'ldi. Uning asosiy mazmuni tasodifan sodir bo'lgan o'lim (xayotga qasd qilingan) va pushaymonlikdir. Asar insonda vaxshiylikka qarshi g'azab, norozilik uyg'otishga chorlaydi. Intererda to'q fonda yorug' tushib turgan ikki figura orqali asar echimini topgan. Erdagi gilam Grozniy va shaxzodaning liboslari, ularning yuzlaridagi xayajon qo'rqinchli ruhiy holat, xonadagi predmetlar to'q ranglarda ustalik bilan tasvirlangan.



Ilya Repinning nafis tasviriy san'at jixatidan moxirona va mukammal ishlangan asarlaridan biri – uning "Kutmagan edilar" polotnosidir. Rassom bu asarni eratar ekan, bir necha eskizlar variantlaridan markaziy qaxramonni turlicha talqin etib ko'radi. Biz ko'rgan variantda revolyutsiya surgunidan ozod bo'lib, o'z oilasiga qaytib kelishi tasvirlangan. Birinchi planda, suratning markazida rassom xayajon, sarosimada o'g'liga peshvoz chiqmoqchi bo'layotgan onani tasvirlaydi. Shu bilan kompozitsiya markazini aniqlaydi. Surgun qilingan odam xonaga kirib kelarkan, uning butun qiyofasida, ayniqsa yuz-ko'larida, g'amginlik, xadiksirash tashvishi bor. Kreslodan turgan qari onasining bukchayishidan, qo'llarining qaltirashidan o'z o'g'lini taniganligini, qattiq xayajonlanayotganini xis etamiz. Royal oldidagi ayol bezovtalik bilan kresloga suyanadi. Ko'zi oldida eri turganligiga u xali ham

ishonmayotganday. Uning yuzida xayrat va sevinch. Bolalar bu voqeaga turlicha munosabatda bo'lishadi. Bola aftidan otasini unitmaganga o'xshaydi, uning kelganidan juda xursand: qizcha uchun esa u odam begona, shuning uchun ham u uylariga kelgan bu g'alati odamga xadiksirab qaraydi. Bu kutilmagan voqea ularni esankiratib qo'yganini tasvirlagan kartinada oddiy intelligent oilaning turmush sharoiti, uy jixozlari yaxshi tasvirlangan. Asar vazmin, kul rang bo'yoqlar gammmasida ishlangan xonaning sal yoritilganligi, xavoning ochiqligi, bo'yoqlar uyg'unligi nixoyatda ustalik bilan berilgan. "Kutmagan edilar" polotnosi odatdagi maishiy temadagi suratlardan ustun turib, katta ijtimoiy mazmun va ma'no kasb etgan.

N. Gening «Petr I shahzoda Alekseyni Petergofda so'roq qilmoqda» asari ham tarixiy xujjatlarni sinchiklab o'rganish natijasida, Petergof saroy xonalaridan etyudlar, eskizlar yozish natijasida yaratilgan. Asarda eski va yangi shakllangan xarakterlar, qudratli rus davlatining sardori, Evropaga yo'l ochgan ulug' Petr tasvirlangan. Jang manzaralarini aks ettiruvchi janr o'z tematikasi jihatidan tarixiy janrga yaqin turadi. Bunnig sababi, shundaki, jang manzaralarini ko'rsatuvchi bu asarlar faqat urush voqealarini aks ettiribgina qolmay, jang bilan bevosita bog'liq bo'lgan tarixiy voqealarni aks ettiruvchi janr tarixiy janrning bir qismi deb qaralishi mumkin. Askarlarning vatanparvarligi, fidokorligi, mardligini V. Surikov o'zining «Suvorovning Alpdan oshib o'tishi» suratida aks ettirgan. Bu asarda rassom Suvorovning harbiy san'atini katta mahorat bilan tasvirlagan. Jang manzaralarini kursatuvchi janrga B. Grekov asos soldi.

Har bir san'at asarini yaratishda mazmun va g'oyani asosiy echimi eskizda o'z aksini topishi lozim. Keyinchalik eng yaxshi bajarilgan eskiz tanlab olinadi. Izlanish jarayonida kompozitsiyaga kerakli detallarni, predmetlarni aniqlab olish lozim, mavzuda sodir bo'layotgan voqeaning markaziy qismini topish kerak. Eskiz bajarish jarayonida yaxlitlik, masofa, keyinchalik, havo perespektivasi qonunlariga, asosiy va ikkinchi darajali guruh xususiyatlariga, kolorit tanlashga alohida ahamiyat berish o'rinlidir. Kompozitsiya tuzilishini to'g'ri topish uchun naturadan - odamlar guruhidan tezkor chizgilar, eskizlar bajarish zarur. Chunki o'tkir qobiliyatni ijodiy tasavvur, «fantaziyani» shakllantirish aynan shu jarayonda sodir bo'ladi. Bu ijodiy

jarayondagi o’ziga xos ko’nikmalarni hosil qilish uzoq vaqt mashq qilib ishlashni talab etadi.

Kompozitsiya-bu muallifning ijodiy, badiiy ifodasi, mahsuli hisoblanadi. Shunday ekan tasviriy san’atning barcha janrlarida kompozitsiya yaratish yuksak darajada bilim, ko’nikma, malaka hamda qobiliyat, saloxiyatni talab etadi. Shu bois bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilari oliy o’quv yurtida ta’lim olayotgan vaqtdanoq keng qamrovli faoliyatga o’zlarini tayyorlab borishlari lozim.

O’zbek tasviriy san’atida maishiy janr XX asr 20 yillarini ikkinchi yarmidan boshlab rivojlana boshladi. 1926 yili Toshkentda AXRR (Assotsiatsiya xudojnikov revolyutsionnoy Rossii)ni filiali tashkil etildi. Assotsiatsiya janrni rivojlanishida muhim rol o’ynadi. Tashkil etilgan ko’rgazmalardagi ishlar rassomlarda qoniqish hosil qilmadi. Ular hayotda bo’layotgan o’zgarishlar, mehnatkash xalqning tabiatga, erga bo’lgan munosabatini sinchiklab o’rgandilar.

Ko’rgazmalarda U. Tansiqboev, A. Toshkenboev, B. Xamdami, L. Abdullaev, A. Roziqovlar qatnasha boshladilar. Yangi nomlar paydo bo’ldi, rassomlarni asarlarini saviyasi o’sib ijodlari rivojlana bordi. Rassomlarni ko’pfigurali kompozitsiyani tasvir va rang vositalari qiziqtirdi. Shu tariqa 20-30 yillarda O’zbekistonda maishiy janr shakllanib, rivojlandi. Ana shu davrda Samarqandlik rassom L. Bure, o’zining ijodiy va pedagogik faoliyatini boshladi. Uning dastlabki (1928 y) kompozitsiyalari «Tandir quruvchilar», «Buxoroda Nodir Devon-begi havuz suv tashuvchilari» bo’lsa, 1930 yillarda «Maktab qurilishi», «Paxta terimi»dan iborat rasmlar yaratdi. Sxematik chizgi tasvirlarda nuqsonlar mavjud, lekin taxminiy ranglar ifodasi, kartinani hayotiy etib ko’rsatadi.

Rassomlarning keksa avlod vakillaridan biri Aleksandr Volkovdir. Dastlabki ijodiy izlanishlari formalizm yo'lidan qutulib, hayotni realistik tasvir uslubiga qaytgan yillari edi. U ko'p asarlarida inson obrazini, yangi hayotni jozibali ranglarda tasvirlaydi. Uning 24-30 yillarda yaratgan «Choyxonada», «Eski shahar choyxonasi», «Anorli choyxona» shular jumlasidandir. Choyxonada choy ichish, bu inson qalbini yumshatib suhbat qurish, hayot muammolari bilan o'rtoqlashishga yaqin muloqotda bo'lish uchun muhim ma'naviy ehtiyoj makoni. U shuningdek Respublikani yangi qurilish ob'ektlarida bo'lib, «Qurilishda», «Paxta terimida», 1933-1934 yillarda «Brigada majburiyat qabul qilmoqda». «Hosil» triptix, «Sbor ekskovatora», «Chirchikstroy», «Tashselmash» asarini yaratdi. U o'z asarlarida mehnatkash inson hayoti, mehnatini, Respublikada rivojlanayotgan industriya qudratini aks ettirdi.



O'zbek tasviriy san'atining siymolaridan biri «Bahrom Hamdamiy»dir. u 1935 yili Toshkent rassomchilik texnikumini imtiyozli diplom bilan tamomladi. Rassom A. Volkov, M. Kurzin, O. Tatevosyan kabi ajoyib rassom va pedagoglardan ta'lim oldi. O'sha vaqtda tuzilgan A.Volkov rahbarligidagi ijodiy brigadalardan biriga Bahrom Hamdamiy ham kirgan edi. Brigadada U. Tansiqboev, N. Qoraxon, A. Podkovirov, A.Toshkanboevlar bilan do'stlashib Respublika bo'ylab ijodiy safarda bo'ldi, yig'ilgan materiallar kelajak ijodiga zamin yaratdi. Hayotdagi o'zgarishlar xalqning mehnatdagi muvafaqqiyatlari rassomni ijod qilishga ilhomlantirardi. Har bir kartinani yaratishda sidqidildan muhabbat bilan yondoshardi. 1936-37-38 yillar yaratgan «Choyxonada oqshom», «Sevimli qo'shiq», «Tasvir

to'garagi» kabi kartinalarida yuqorida ta'kidlab o'tgan fikrlarga amin bo'lamiz. 1936 yili bir guruh yosh rassomlar qatori Moskva-Leningraddagi Davlat Tretyakov galereyasi, Pushkin nomidagi Davlat Tasviriy san'at muzeyi, Davlat Ermitaji, Rus muzeyida rus va G'arbiy Evropa san'ati durdonalari bilan tanishishga muvofiq bo'ldi. Rassom 1939 yilda «Ish tugaganda» deb atalgan kartinasini yozib tamomladi. Bu asar 1940 yilda Respublika ko'rgazmasiga qo'yildi va mutaxassislar tomonidan o'zining badiiy jihatidan O'zbekiston rassomlarining maishiy mavzuda yaratilgan birinchi va eng yaxshi asar sifatida kutib olindi.

Kartina qahramonlari - O'zbekiston kishilari, xalq qurilishining kamtarin bahodirlari. Oldimizda o'zaro suhbatlashayotgan bir guruh kanal quruvchilari yirik planda gavdalandi. Rassom o'zbek xalqining milliy xususiyatlarini yaxshi bilgan. Shuning uchun kartina kompozitsiyasi tabiiydek bir butun tarkibiy yaxlit, rassomga yaxshi tanish, yosh quruvchilarning oftobda qoraygan, bronzadek qomatlari ham, keksaroq erkakning yashil zangori kiyimlari, abxazcha kigiz qalpoq kiygan ishchining elkasidagi beqasam to'n ham, choshgohdagi kalta soyalar ham-hammasini rassom ishonarli jonli bo'yoqlarda yaxlit va yakka detallarning uyg'unligini his qilib tasvirlay olgan.

1941 yilda «Farxod Xisrav asrligida» kartinasini yozib tamomladi. Bu polotno buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning tug'ilganiga 500 yil to'lishi munosabati bilan yaratilgan edi. Hamdamiy bu kartinada o'zining o'tkir shoirona tafakkurini iste'dodini, mahoratini namoyish qilgan. Rassomning bu kartinasi o'zbek dastgohli san'atining Navoiy asari mavzuida yaratilgan namuna bo'lib qoladi.

Nadejda Kashinani dastlabki yaratgan «Paxta terimida» asarlari 1930 yillarga to'g'ri keladi. Kashina asosan mehnatkash o'zbek xotin-qizlarini hayotli, mehnati, quvonchi, taqdiri qiziqtiradi. Ular yashab mehnat qilayotgan quyoshli o'lka, inson qo'li bilan yaratilayotgan bunyodkorlik mehnat rassomning asosiy mavzuidir. U yaratgan «Childirma chalayotgan qiz» (1945 y), «Tushki tanaffus» (1949 y), «Zvenoni yutug'i» (1949 y) asarlari nafis, yorqin ranglarda ifoda etilgan, tomoshabinga shodlik va quvonch baxsh etadi. U o'z asarida ayollarni ichki hissiyot va kayfiyatlarini ochib berishga muvaffaq bo'ladi. Uning asarlarini milliy ruh bilan

sug'orilgan maishiy janrdagi kompozitsiya namunasi deyish mumkin. Har sohada ijod qilgan ko'pgina rassomlar o'zlarini maishiy janrda sinab ko'rganlar. G. Chernuxinni «Sharqona bozor» (1978 y), «Mehnat romantikasi» (1975 y), «Paxta» (1978 y), «Ko'k choy» (1972 y), V. Kovininni «Xirmonda», «Qurultoy kunlarida» (1969 y), V. Burmakinni «Oila», «Oq xalatli kishilar». R. Axmedovni «Qo'shiq» (1964 y), M. Saidovni «Oila», «Askiya» kabi rassomlarning asarlari misol bo'la oladi.

## 2-BOB. KASB-HUNAR KOLLEJLARI O'QUVChILARINI MANZARA KOMPOZITsIYaSINI ChIZIShGA O'RGATISh METODIKASI

### 2.1. O'quvchilarga rangtasvir kompozitsiyasini o'rgatishda uning asosiy qonun-qoidalaridan foydalanish

Har qanday ijodkor tarixda yashab o'tgan rangtasvir san'ati ustalari merosini va tajribalarini o'rganish bilan birga, tomoshabinga chuqur ta'sir etuvchi tasvir, kompozitsiya qonunlari va uslubini ham o'rganadi. Amaliyotda kompozitsiyaning zarur unsurlari mavjud. Yaxlitlik qonuni, o'xshatish, kontrast qonun vositalari mazmuni va g'oyaga bo'ysinish kompozitsiyaning asosiy qonunlari hisoblanadi. Bu qonunning belgilari E. Kibrikning kitobida to'la va chuqur taxlil qilib berilgan. Kompozitsiyada yaxlitlik belgisi qonuniga rioya qilinganligi sababli, san'at asari

bo'linmas bir butun bo'lib ko'rinadi. Kompozitsiya yaxlitligida kompozitsiya elementlari shakl, hajm, «dog'», oraliq harakter nusxa, imo - ishora bilan ifodalanadi.

Kompozitsiyadagi omma - haloyiq tasviri dioganal joylashgan bo'lib, kartinani to'rt burchagini bog'lab turadi. Kartinada nihoyatda ko'p sonli haloyiq jamoa tasvirlangan bo'lib, har bir kishi harakteri, salbiy, ijobiy obrazlar orqali va sinfiy qarama - qarshiliklar, xullasi rus jamiyati o'z ifodasini topgan.

Kompozitsiya xaqiqat qonuni - asosan uchta belgi bilan ifodalanadi. Birinchi belgi bu badiiy asarda sodir bo'layotgan voqeaning o'ziga xosligi. A. Savrasovning «Qora qarg'alar uchib keldilar», I, Levitaning «Oltin kuz», A. Kuindjining «Qayinzorda», A. Rilovning «Havo rang kenglikda» manzaralarida mazmun, nafosat, bilan birga rus tabiatini o'ziga xos obrazi tasvirlangan. Tipizatsiya qonunining ikkinchi belgisi - bu sodir bo'layotgan voqea mavzuini, harakat holatini vaqtini tasvirlaydi. Ayniqsa ko'p figurali kompozitsiya mavzudagi personajlarni har xil holatda aks ettirlgan I.Repinning «Kutmagan edilar» asarida tamoshabin faqat personajlarni tasvirlangan holatini emas, balki ular hibisdan qaytgan erini tasodif ko'rishdan oldin nima ish bilan band, qanday holatda - ekanligini tasavvur qiladilar. Keksa onasi royal' chalishni to'xtatib, kresloni chetga surib, o'g'lini qarshi olishga o'girilgan. Keyinchalik kutilmagan uchrashuv. Natijada qalbni to'lqinlantirib ko'zlari quvonch yoshlariga to'la holatta aylanadi. Bu erda bo'layotgan kulminatsion daqiqa hayotiy voqeani mavzu bilan bog'lovchi harakatdagi vositadir. Yu. Pimenev «Yangi Moskva», «Ertangi ko'chalarda tuy» ( rasmlar) asarida ko'z oldimizda o'zgaraetgan harakatdagi zamonaviy shahar hayotini kursatgan. To'y marosimini yunalishida kelajak hayotga shaxdam qadam tashlayotgan xalqlarning holatidir. Tipizatsiya qonuning uchinchi belgisi bu - yangilikdir. Realistik san'at xaqiqatni to'g'ri ifoda etib qolmay, rassom his tuygularini, estetik go'zallikni, tasavvurni jozibali tarannum etadi. Badiiy obrazdagi estetik sifatlar, kompozitsiya echimidagi yangiliklar rassom tomonidan kashf etiladi.

Estetik kashfiyotlarni Mikelanjelo, Titsian, Rembranatning o'lmas asarlarida, A. Deyneka, A. Plastov, K. Yuon asarlarida kompozitsiya tuzilishining badiiy vositalaridan mavzuda yangilik tushunchasini ko'ramiz. «Novizna» yangilik oqimini

biz A. Kuindjining - «qayinzorlar», V.Polenovning «Moskvadagi hovli» manzarasida ko'ramiz.

Kompozitsiyaning asosiy qonunlaridan biri kontrastlik qonunidir. Leonardo da Vinchi «Rangtasvir qonunlari» ilmiy asarida o'lcham qarama - qarshiligi haqida, katta - kichik, past - baland, yupqa - qalin, harakter, faktura, materiallar kontrasti to'g'risida yozadi. Mikelanjelo tekislikdagi hajm kontrastlarnga ko'p ahamiyat beradi. Inson predmetlar shaklini faqat soya va yorug' kontrastik orqali sezadi va o'z ongiga singdiradi.

Portret janrida rassomlar qadimdan «ton kontrasti»dan foydalanib, yorug' figurani tasvirlashda to'q fondan foydalanganlar. XIX asarda san'at ustalari portretni yorug' fonda tasvirlay boshladilar. B. Serovning «Shaftolilik qiz» portretida, yuzi to'q tusdagi qiz, engil yorug' deraza fonida tasvirlangan.

Rangtasvirda kontrast qarama - qarshi issiq va sovuq ranglar mavjud, qarama - qarshi ranglar bir - biriga yonma - yon tursa, ranglar kuchi ko'payadi: qizil - yashil, ko'k - zarg'aldoq, oq - qora va hakozo.



San'at asarlarini taxlil qilganimizda, kompozitsiya qoida va usullari o'z mohiyatini asta - sekin yo'qotib, yangi kompozitsiya qoidalari paydo bo'la boshladi. Badiiy asar yaratishda rassomlar tabiiy va ongli ravishda kompozitsiya qonunlariga rioya qilishadi. Har bir ijtimoiy - jamiyat san'at oldida yangi zamonaviy vazifalarni ko'ndalang qo'yadi.

Hozirgi vaqtda biz kompozitsiyani nazariy asoslarini ikki guruhga ajratamiz. 1. Kompozitsiya qonunlari. 2. Kompozitsiya qoida va usullari.

Kompozitsiyaning asosiy usullaridan biri ritmni ifodalash, kompozitsiya mavzusi markazini aniqlash, simmetrik yoki assimetrik holati, massani ikkinchi plandagi kenglikdagi asosiy qurilmasini joylashtirish. Ritm hayotda va san’atda mavjudligi rassom uchun yaxshi belgi, vositadir. U bir elementni oraliqda galma-gal qaytarilishidir. Asar g’oyasini kompozitsiya tuzilishini idrok etishda ritm estetik obrazli tasavvur rolini o’ynaydi va kontrast rang, ton qonunlariga suyanadi.

Uzoq kenglikni ochiq manzarada gorizontal xolatda tasvirlansa, kenglik bepayon, katta bo’lib tuyuladi. V. Meshkovning «O’ral xaqida o’ylar» manzarasi juda gorizontal uzun formatda joylashtirib tasvirlangan. Ko’p planli manzarani orqasida o’rmonzor tasvirlangan. Oldingi va orqa plandagi kontrast yorqin ranglar, engil ufq chizig’i masofani, bepayon kenglikni aks ettiradi.

Kompozitsiyani gorizontal usulda ifodalashda tinch, osoyishtalik holatini sezamiz. Kompozitsiyani paralel, vertikal yo’nalishda bo’lishi tantanali ulug’vor, ko’tarinki rux holatini anglatadi. Bunga L. Abdullaevaning «qo’riq er ochuvchilar» kartinasi misol bo’lishi mumkin. Dioganal yo’nalishi esa harakat holatini kuchayishi yoki susayishini ko’rsatadi. V. Surikovning «Boyarinya Morozova» kartinasida chananing harakatdagi yo’nalishi, chopib borayotgan bola, hayajon bilan kuzatib turgan turli libosdagi haloyiq - omma pastki o’ng burchakdan, yuqori - chapburchakka dioganal yo’nalishida tasvirlangan. Asarda harakat yo’nalishini o’ngdan chapga susaygan holati masofani chuqurligini ifodalashga imkoniyat beradi.

Tasviriy san’at kompozitsiyasining qonun – qoidalaridan foydalanish ibtidoiy davrdan shakllangan. Tabiatga sergaklik bilan e’tibor berib, barglar, shoxlar gullarni tuzilishini kuzatganlar, yil fasllarini takrorlanib kelishi, kun va tunni farqlarini anglab tabiatdagi ritm va simmetriyani tushunib etganlar. Masalan qadimgi greklarni releflarida ritm aniq sezilib turadi. «Kompozitsiya» ustida ishlash va barcha tayyorlov bosqichlari ijodiy jarayon hisoblanadi.

**Ijod** – bu inson ongining yuqori va murakkab darajasidir. Insonni bilim, malaka, xayotiy tajribalari natijasida tug'iluvchi mo'jizadir. Tasviriy san'atda ijodning natijasi badiiy asar yaratilishidan iborat.

**Badiiy ijod**ning mohiyati, ijod faoliyatining strukturaviy faktorlarga bo'linishi masalasida qiziqarli g'oyalar L.G.Ermashning o'tkazgan «San'atning ijodiy tabiati» tadqiqotida berilgan. Ijodning kuchi «Ruhiy va amaliy qobiliyatlar» - bu mehnat, ilxom, xotira, tafakkur, badiiy talant, xayol, xissiyot kabilar yordamida amalga oshib boradi.

**Mehnat** – insonning asosiy faoliyat turlaridan biri xisoblanadi, shu tufayli inson moddiy va ma'naviy boyliklar yaratadi. Mehnat natijasida san'at asari yaratiladi. Ijodiy mehnat – tabiatni kuzatish, adabiyotlar o'qish, materiallar yig'ish, qoralama va xomaki rasm, etyudlar bajarish kompozitsiya eskizlari ustida ishlash, dunyoqarash, mahorat, malakalarni egallash va asar yaratish bilan bog'liq, rassomning individual xususiyatlaridan iborat.

**Xotira** - badiiy ijodning reproduktiv kuchi xisoblanib, odamning o'tgan tajribasini namoyon qiladi. Inson xayotida, har qanday faoliyatida xotirani chetlab o'taolmaydi, o'sha taasurotlarni taxliliga ko'ra naturasiz kompozitsiya eskizini chizaoladi. Naturadan ishlashda olingan tasavvurlar yig'indisi va ko'rish taasurotlari, asarni qamrab oluvchi qimmatli obrazlar yaratishga imkon beradi. Juda ko'p mashq qilgan va o'zining ko'rish xotirasini rivojlantirgan buyuk rus rassomi A.Serov kichik yoshidayoq surat chizishni boshlaganda xotiradan chizishni yoqtirardi. I. K. Ayvazovskiy esa xayron qolarli darajada ko'rish xotirasini egallagan edi.

**Iroda** – ijod kuchining samarasini belgilovchi ijod uchun eng zarur psixik jarayonlardan biridir. Iroda – aqliy va jismoniy kuch – quvvatni ongli ravishda boshqara olish demakdir. Murakkab irodaviy xarakat maqsadni amalga oshirishga olib keladi. Irodani ma'lum xususiyatlari: mustaqillik, sabr – toqatlik, o'z – o'zini boshqara olishdan iborat. Iroda katta kuch sifatida ijodni aktivlashtirib yuqori natijalarga erishtiradi.

**Tafakkur** – ijod kuchlaridan biri bo'lib, borliq haqida fikrlashda, taxlil qilishda idrok, sezgi, hissiyotni badiiy asar yaratish maqsadida yo'naltirish. Badiiy asar inson faoliyatining boshqa soxalaridagi kabi tafakkurning mahsuli hisoblanadi. San'at asari faqat tasviriy vositalarni o'z ichiga olibgina qolmay, balki g'oyaviy – estetik mazmun, dunyoqarash, falsafiy tushinishni ham qamrab oladi.

Rassomning tafakkuri ijodiy xarakteri bilan ajralib turadi, ijodiy xayol bilan birga xarakatlanadi.

**Ilxomlanish** – insonnning mehnat jarayonidagi eng ko'tarinki ruhiy holatdir. Rassomning ijodiy mehnatida ilxomlanish, aktiv ijod kuchlaridan biri sifatida ahamiyatli rol o'ynaydi. Ilxomlanish – ijodiy, ma'naviy, jismoniy jixatdan rassom uchun ijodiy vaziyat juda tez echilgan bo'ladi. Bunda rassomning ijodiy hayoli, tafakkuri faol ishlagan bo'ladi.

**Badiiy talant** – shaxsiy psixologik xususiyatlardan biri bo'lib, badiiy ijodda eng katta kuch sifatida faol ishtirok etadi. Tug'ma talant insonning o'zida tug'ma anatomik va fiziologik tuzilishida o'ziga xoslik bilan mavjud bo'ladi. Badiiy talant albatta san'atga mehr – muhabbatni talab etadi va ijod qilish ishtiyoqi tinchlik bermaydi. Insonning badiiy iqtidorining eng yuksak darajali sifati bu **geniallikdir**. Badiiy ijodda **geniallik** tushunchasi talantning izoxsiz yuqori darajada namoyon bo'lgan sifati bo'lib, u rassomni ma'lum tarixiy davr san'atidan yuqori turuvchi va dunyoviy ahamiyatga ega bo'lgan san'at asarlari yaratishga olib keladi.

**Ijod komponentlariga** – bilim, dunyo qarash, badiiy uslub, estetik va badiiy did, mahorat kiritiladi. Bilim ijodning asosiy bosh komponenti hisoblanib, uni egallash orqali sezgi, estetik his qilish, idrok, tafakkur, xotira, dunyo qarash, malaka, ijodiy uslubi, maxorat rivojlanib boradi. Rassom uchun bilim – bu hayotiy material, hayotni chuqur har tomonlama o'rganish bo'lib, usiz san'at asari yaratib bo'lmaydi. Rassom xar tomonlama hayotni yaxshi bilgan, bilimli, ziyoli inson bo'lmog'i lozim. Undan tashqari, u bilimini o'zining hissiyotlari orqali umumlashgan shaklda badiiy obraz aks etdirmog'i lozim.

**Dunyoqarash** – ob’ektiv borliqni badiiy xarakterda faoliyatning g’oyaviy yo’nalishiga mos xolda aniqlashdan iboratdir. Dunyoqarash fanlardan olingan bilimlar asosiga suyanadi.

**Estetik va badiiy did** ham dunyoqarash ham badiiy uslub bo’lib, rassomning ma’lum alohida g’oyaviy estetik ijodiy yo’nalishini ko’rsatadi. Estetik va badiiy did insonga tug’ilganda berilmaydi, xuddi qobiliyatga o’xshash, u insonning o’sishi bilan rivojlanib boradi.

**Mahorat** – tasviriy san’atning zaruriy sharoitida namoyon bo’luvchi shaxsning badiiy qobiliyati, ruxiy xususiyati va sifatlaridir. Mahorat yuqori darajadagi bilim, tasviriy texnika, ko’nikma, malakani mukammal egallamoqdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o’quvchilarga rangtasvir kompozitsiyasini o’rgatishda uning asosiy yuqorida bayon etilgan qonun-qoidalaridan foydalanish

## 2.2. Tasviriy san’at darslarida manzara ishlash mashg’ulotlarini didaktik tamoyillarga mos ravishda tashkil etish.

Inson faoliyatida o’qitish har doim juda muhim ahamiyatni kasb etgan. Ta’lim tasodifiy, intuitive xususiyatga ega bo’lganda ham va asosan tasodifan axborotlarni berish hamda taqlid qilishdan iborat bo’lganda ham shunday bo’lgan. Faqatgina XVII asr bu sohaga muhim o’zgarishlani olib keldi; aynan o’sha paytda ta’lim alohida nom oldi va tarixda birinchi didaktik faoliyatning asoslangan tizimiga poydevor qurildi.

Didaktika – (ta’lim nazariyasi; yunoncha “didaktikos” –“o’rgatuvchi”) ta’limning nazariy jihatlari, ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo’llari va boshqa muammolarni o’rganuvchi fan.

Bugungi kunda ta’lim jarayoni didaktik vazifalarning barchasini amalga oshirishni talab etmoqda. Shuningdek tasviriy san’at darslarida manzara ishlash mashg’ulotlarini  ham barcha didaktik tamoyillarga mos holda tashkil etish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Avvalombor didaktik tamoyillarning o'zi nima degan savolga javob berib o'tsak. Didaktik tamoyillar-o'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmunini, tashkiliy shakl va metodlarini belgilovchi boshlang'ich qoidalardir.

Tamoyil- (yunoncha "prinsipium") biror-bir nazariyaning asosi, negzi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Didaktik tamoyillar o'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga ko'ra tashkil etiluvchi ta'lim jarayonining tashkiliy shakl va metodlari, asosiy qoidalari mohiyatini belgilovchi mazmundir. Ta'lim tamoyillarida ta'limning aniq, tarixiy tajribaga asoslanuvchi me'yoriy asoslari o'z ifodasini topadi. Ta'lim tamoyillarini bilish o'quv jarayonini uning qonuniyatlari asosida tashkil etish, uning maqsadlarini asosli ravishda belgilash va o'quv materialining mazmunini tanlab olish, maqsadga muvofiq ta'lim shakli va metodlarini tanlash imkonini beradi. Shu bilan birga bu tamoyillar o'qituvchilar va o'quvchilarga yaxlit jarayonning bosqichlariga amal qilish, o'zaro aloqalar va hamkorlikni amalgam oshirishga xizmat qiladi. Tamoyillar ta'lim jarayonining mohiyatini aks ettiradi.

Manzara ishlash mashg'ulotlarini ham quyidagi *mazmunli* va *tashkiliy metodik* tamoyillaridan tashkil topgan tizim sifatida etirof etishimiz mumkin.

I. *Manzara ishlash mashg'ulotlarining mazmunli tamoyillari* ta'lim mazmunini tanlash bilan bog'liq bo'lgan qonuniyatlarni aks ettiradi va quyidagi g'oyalarni ifodalaydi.

-fuqorolik;

-ilmiyligi;

-tarbiyalovchi ta'lim;

-fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi (ta'limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi);

-tabiat bilan uyg'unligi;

-insonparvarligi.

-Fuqorolik tamoyili. Unga kora tasviriy san'at fanlarida manzara ishlash mashg'ulotlari mazmuni, shaxsning subektivligini rivojlantirish, uning ma'naviyligi ijtimoiy yetukligiga yo'naltirishda namoyon bo'lishi kerak. U ta'lim mazmunini insonparvarlashtirishni nazarda tutadi va fuqorolikni anglash, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va siyosiy tuzilishi haqidagi tasavvurlar tizimi, o'zbek xalqi madaniyati, psixalogik xususiyatlari, uning mentaliteti va madaniyati kabi dolzarb masalalar haqidagi tasavvurlarning shakillanishi bilan bo'g'liq.

-Manzara ishlash mashg'ulotlarining ilmiylik tamoyili ta'lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojalnish darajasi, jahon sivizilizatsiyasi to'plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi.

-Manzara ishlash mashg'ulotlarining tarbiyalovchilik tamoyili yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil mashg'ulot jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakillantirishni ko'zda tutadi. Ta'lim jarayonida tarbiyalashning intelektual rivojlanishi, birinchi navbatda, talabalarning qiziqishlari, idrok etish hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan bog'liq.

-Ta'limning fundamentalligi tamoyili va amaliy yo'nalganligi tamoyili umumiy o'rta ta'lim maktablaridayoq o'quvchilar chuqur zaruriy va amaliy tayyorgarlikdan o'tadilar. Mazkur holat an'anaviy didaktikada ta'limning hayotbilan, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi kabi ifoda etiladi.

-Ta'limning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili. Ya. A. Komenskiy ta'lim tabiatga uyg'un bo'lish g'oyasini ilgari suradi. Bu g'oya san'at sohasiga to'la qonli dahildordir.

-Manzara ishlash mashg'ulotlarining insonparvarlik tamoyili talabaning yetuk shaxs sifatida qadr-qimmati, uning erkinligi hamda baxtli hayot kechirishini ta'minlashi, uni rivojlantirishi, ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, unga hayotda o'z o'rnini topishda yordam ko'rsatishi lozim. O'zbekiston Respublikada huquqiy, demokratik jamiyat barpo etilayotgan mavjud sharoitda pedagoglar oldida

barkamol, har tomonlama rivojlangan, erkin va mustaqil fikirlovchi kadrlar tayyorlash vazifasi turibdi. Mazkur vazifa ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo'lish orqali ijobiy hal etiladi.talabalarga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo'lish ularning qobiliyatini ko'ra olish, unga ishonch bildirish, shuningdek talabaning xatoga yo'l qo'yish, shaxsiy nuqtayi nazariga ega bo'lish huquqini qadrlashni nazarda tutadi.

*Manzara ishlash mashg'ulotlarining tashkiliy metodik tamoyillari.*

Manzara ishlash mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi ta'lim mazmunini shakillantirish kabi erkin tanlanishi mukin emas. Bu borada muayyan ijtimoiy, psixalogik va pedagogic talablarni inobatga olish zarur. Bunday talablar ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillari deb deb yuritiluvchi tamoyillar mazmunida o'z ifodasini topad.

-ta'limning izchilligi, tizimliligi, ketma-ketligi;

-ta'limda onglilik va faollik;

-talimda ko'rgazmalilik;

-ta'limning samaradorligi va ishinchliligi (mustahkamligi);

-ta'limning tushunarliligi;

-ta'limning talabalar yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi;

-oqilona talabchanlik bilan talaba shaxsini hurmat qilishning muvofiqligi.

-*Manzara ishlash mashg'ulotlarining izchilligi, tizimliligi, ketma-ketligi tamoyili* bilish bosqichlarining obyektivligini anglatadi. Ta'lim jarayonining, mashg'ulotlarning ma'lum tizim va ketma-ketlik asosida bo'lishini nazarda tutadi, zero eng murakkab masalalarni oddiy masalalarni o'rganmay turib hal etib bo'lmaydi.

-*Onglilik va ijodi faolllik tamoyili.* Bu tamoyilning asosini (fanni) manzara ishlash mashg'ulotlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'luvchi qonun-qoidalar majmuini shakillantirish tashkil etadi.

Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish quyidagi shart va omillarga bog'liq; ta'lim motivlari, talabalarning faollik darajasi, o'quv mashg'ulot jarayonining samarali tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan qo'llanuvchi ta'lim metodlari va vositalarining samaradorligi va boshqalar. Mazkur tamoyil talabalarning tashabbuskorligi va mustaqil faoliyatlarini nazarda tutadi.

-*Ko'rgazmalilik tamoyili* manzara ishlash mashg'ulotlarini tashkil etishning asosini tashkil etuvchi muhim qoidalardan biri hisoblanadi. Ya. A. Komenskiyning fikricha ko'rgazmalilik tamoyili didaktikaning "oltin qoidasi" hisoblanadi. Bu fikirga binoan ta'lim jarayonida inson sezgi organlaridan foydalanishi kerak. "Agar biz o'quvchilardan haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko'rish bilan ta'limga intilishimiz kerak- deb ta'kidlaydi u- agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo'lsa, mayli ular baravariga bir necha sezgilar bilan o'rganilsin" Tajribalar asosida o'rganilayotgan narsani namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o'zlashtirish darajasini birmuncha oshiradi. Xususan, axborotlarni eshitib qabul qilish samarasi 15%, ko'rib qabul qilish esa 25% ni tashkil etishni tajribalar ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida ularning har ikkisi ham bir vaqtda ishtirok etsa ta'lim samaradorligi 65% gacha oshishi mumkin. Ko'rgazmalilikning samaraliligi shundaki undan ta'lim jarayoninig hamma bosqichlarida foydalanish mumkin.

-*Manzara ishlash mashg'ulotlarining samaradorligi va ishonchliligi tamoyili*. Ananaviy didaktikada u mustahkamlik tamoyili ham deb yuritiladi. Agar manzara ishlash mashg'ulotlari ta'lim maqsadlariga erishishni ta'minlamasa, bunday vaziyatda ushbu jarayonni tashkil etish zarurati paydo bo'ladi. Shu bois manzara ishlash mashg'ulotlari samarali, rivojlantiruvchi va shuningdek tarbiyalovchi xususiyatga ega bo'lishi kerak. Manzara ishlash mashg'ulotlarining ishonchliligi va mustahkamligini ta'minlash uchun talabalar mashg'ulot jarayonida o'quv-o'rganish harakatlarining quyidagi to'la siklini o'zlashtirishi zarur; o'rganilayotgan materiallarni dastlabki qabul qilish, uni chuqurroq anglab yetish, eslab qolish, o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni qo'llash bo'yicha amaliy faoliyatni amalgam oshirish, ularni takrorlash va tizimlashtirish.

-*Manzara ishlash mashg'ulotlarining tushunarlilik tamoyili*- talabalarning mavjud imkoniyatlarini hisobga olish, jismoniy hamda psixik sog'lig'iga salbiy ta'sir etuvchi intelektual va emotsional qiyinchiliklardan voz kechishni talab etadi. ta'limning tushinarli bo'lishi talabalarning bilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulot mazmunini to'g'ri tashkil qilishni talab etadi. ya'ni manzara ishlash mashg'ulotlari bo'yicha talabalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, amaliy ko'nikma va malakalar hajmini to'g'ri aniqlay olishdir. Bu tamoyil mashg'ulot vaqtida talabalarda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengish istagini hosil qiluvchi shaxsiy muvoffaqiyqtlardan quvonish tuyg'usini yuzaga keltirishga yo'naltirilgan.

-*Talimning talabalar yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi tamoyili.* Yoshga muvofiq holda yondashish talabalarning psixik xususiyatlari, shaxsiy rivojlanganlik darajasi, ma'naviy axloqiy sifatlari, ijtimoiy yetukligini baholay olishni nazarda tutadi. Agarda manzara ishlash mashg'ulotlarida qo'yilayotgan talablar yoki mashg'ulotning tashkily tuzilishi talabalar yoshi imkoniyatlaridan ortib qolsa yoki ilgarilab ketsa o'quv mashg'uloti samarasi pasayish holati yuzaga keladi. Mashg'ulotlar jarayonida individual yondashish talabaning murakkab ichki dunyosini o'rganish, yuzaga kelgan munosabatlar tizimini tahlil qilish va shaxs shakillanishida sodir bo'ladigan ko'p turdagi sharoitlarni aniqlashni talab etadi.

-*Oqilona talabchanlik bilan talaba shaxsini hurmat qilishning birligi tamoyili.* Pedagog ta'lim oluvchini shaxs sifatida hurmat qilishi zarur. Mashg'ulotlar jarayonida oqilona talabchanlik maqsadga muvofiq bo'lsa, ta'lim jarayoni talaba shaxsining to'liq va barkamol rivojlanishini ta'minlay olsa samarasi ancha yuqori bo'ladi. Mashg'ulot jarayonida talabalrga nisbatan talabchanlik ularni tartibli, intizomli bo'lish, vazifalarni o'z vaqtida bajarish ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlashi lozim.

# 3-BOB. KASB HUNAR KOLLEJLARINING TASVIRIY SAN’AT MAShG’ULOTLARIDA O’QUVChILARNI MANZARA KOMPOZITsIYaSIDA IJOD ETIShGA O’RGATISh BO’YIChA OLIB BORILGAN TAJRIBA SINOV IShLARI

## 2.1. Kasb hunar kollejlari o’quvchilarini manzara ishlashga o’rgatish metodikasi

Manzara kompozitsiyasi rassom, muallimlar tayyorlash jarayonida eng zarur mavzulardan biri bo’lib, qalamtasvir, rangtasvir hamda kompozitsiya buyicha amaldagi dasturning muhim qismi xisoblanadi. Manzara odamda eng kup xissiyot uyg’otuvchi janrlardan biridir. Yaxshi manzara asarlari o’zining nafosatli ta’sirchanligi bilan insonning ruxiy, ma’naviy olamini boyitishga qodir. Ona yurt, qadirdon o’lkamiz-O’zbekiston tabiati xususiyatlarini o’zida to’laqonli aks ettiruvchi, anashu go’zallikga nisbatan ijodkorning munosabatini namoyon etuvchi asarlarda esa Vatanga muxabbat xissiyotini tarbiyalash vositasi hamdir.

Manzara janrining muhim ekanligini har qanday mavzu va mazmundagi asarning uzviy bo’lagi sifatida foydalanilishi bilan ham izohlash mumkin. Chunki manzara har qanday tarixiy, maishiy hamda natyurmort va porteret asarlarning bir qismi, ya’niy asosiy mavzuni ochib, to’ldirib turuvchi fon sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga u alohida ma’lum ma’noni tashuvchi, ko’rinishni barcha jixatlari bilan aks ettiruvchi mustaqil asar sifatida yaratilishi ham mumkin. Jahon tasviriy san’at tarixiga murojaat etar ekanmiz yuqorida fikrlarga juda ko’plab misollar keltirishimiz mumkin. Masalan: P.Rubens, N.Pussen, K.Korro, I.Repin, N.Yaroshenko, V.Surikov, P.Benkov, L.Abdullaev, M.Nabiev, R.Axmedov, Z.Inogomov, J.Umarbekov, A.Mirzaev, A.Ikromjonov, M.Nuriddinov, Z.Faxriddinov, O.Qozokov asarlarida manzara mavzuli kompozitsiyaning yordamchi qismi sifatida aks etgan. N.Karimov, I.Levitan, F.Vasilev, I.Shishkin, U.Tansiqboev, N.Karaxan, G. Abduraxmanov, A.Muminov, I.Xaydarov, A.Yunusov, A.Jamolov,

M.Toshmurodov va boshqalar manzarani mustaqil badiiy murakkab asar sifatida yaratganlar.

Ma’lumki manzara asarlarining o’zi mazmun va mavzu jihatdan bir necha xilga bo’linadi. Ular - shahar ko’rinishini ifodalovchi, sanoat, tarixiy, romantik, lirik, epik, intim, dengizni aks ettiruvchi va ponoramali manzaralardir. Manzara asarlari mavzu va mazmun jihatdan rang - barang bo’lsada, ularning barchasiga taallukli umumiy qonuniyatlari ham mavjudki, bunday xususiyatlar kompozitsiya qo’rilishi asoslari, mutanosiblik, fazo va chiziqli perspektiva qoidalari rang va tus borasida olib boriladigan jarayon bo’ladi. Chunki manzara asari boshqa bir manzara asaridan mazmun va mavzu, vokeabandlik yuzasidan tubdan farq qilsada, maxorat darajasi tasviriy vositalarning qo’llanishi bo’yicha mushtaraklik kasb etishi mumkin. Masalan, shahar manzarasini tasvirlovchi rassom bilan tog’lar va kengliklarni tasvirlovchi rassom aks ettirgan tasvir ob’ektlari turlicha bo’lsada, ularning o’z ishlarini amalga oshirishlari uchun zarur bo’lgan tasviriy vosita, uslubiy yo’nalish bir - biriga o’xshash bo’lishi mumkin. Ya’ni har bir asarda manzaraning va umuman rangtasvir kompozitsiyasining asoslari: mavzu, voqeabandlik, obrazlar, qrish nuqtasi, ko’rish darajasi, fazoviy planlar, perspektiva, ritm, kalorit, nur, shu’la, kompozitsiya markazi mavjud bo’lishi kerak. Qalamchizgi rangtasvir hamda kompozitsiya asoslaridan etarli darajada xabardor bo’lmagan, o’zining maxoratini natyurmortlar va qoralama lavhalar chizib oshirib bormagan ijodkor yaxshi manzara namunasina yarata olmaydi. Shuning uchun u manzara chizishda kerak bo’ladigan nazariy va amaliy vazifalarni bilishi va bajarishi lozim. Manzara asari yaratish ishtiyoqida bo’lganlar uchun ikkinchi darajali narsani o’zi bo’lishi mumkin emas. Tasvirning barcha unsurlari o’z moxiyati bo’yicha muhimdir.

Manzara yaratish mavzu tanlash va u xaqida muloxaza, mushoxada yuritishdan boshlanadi. Sung tanlab olingan tasvir ob’ektlardan qarab qalamchizgilar, ranglavhalar, qoralamalar ishlanadi.

Tabiat manzarasini kunning turli vaqtlarida va har xil obi - havo sharoitida kuzatib, chiqish uchun eng maqul xolati aniqlanadi. So’ng uni qanday qilib obrazli tarzda aks ettirish yo’llari qidiriladi. Ya’ni mazkur xolat va tabiat ko’rinishiga xos bo’lgan

umumiy jixatlar idrok ettirib, ko'plab kichik - kichik o'lchamli kompozitsiya eskizlari chizib ko'riladi. Undan keyin maqul varianti oldindan tayyorlangan bir qancha ranglavha va qalamchizgilar asosida ishlab chiqiladi. Ammo bu jarayonda manzaraning qisqa muddati ishlanadigan ranglavhasi bilan xaqiqiy tugal manzara - kompozitsiya orasidagi farq unutilmasligi kerak.

Ranglavhalar asosiy asarga yordamchi ashyo yoki bo'lmasa oddiy mashq sifatida bajariladi. Ana shunday ko'plab bajarilgan ishlar to'plami asosiy manzara asarining mazmuni, kompozitsiya tuzilishi, rang xususiyatlari ustida samarali ish olib borishda juda muxim rol' uynaydi.

Manzara ranglavhasi ustida ishlash jarayonida «manzara chizish tasviriy san'atning eng oson janri, unda buyumlar aniq o'xshatib tasvirlanmasa ham, ko'rinishni xoxlagancha o'zgartirib ishlasa ham bo'ladi», degan va shu kabi xavaskor rassomlar o'rtasida uchrab turuvchi xato, noto'g'ri fikrlardan iloji boricha yiroq bo'lishi kerak. Chunki asar yaratishda oson mavzu, qiyin mavzu, oson janr, murakkab janr degan tushunchalarning bo'lishi aslo xaqiqatga to'g'ri kelmaydi. Har qanday asar unga xalol, vijdonan mexnatsevarlik bilan yondoshilsa, muvaffakiyatli chiqadi.

Asosiy ishga tayyorgarlik maqsadga mos keladigan joy tanlashdan boshlanadi. Masalan, shahar mavzuidagi manzara ranglavhasini yaratish xaqida to'xtalib o'taylik. Avval mavzuni aniqlashtirib olinadi, ya'ni eski, ko'xna, tarixiy voqiyalar guvoxi bulgan me'moriy obidalar, inshootlar aks etgan rangtasvir yaratmoqchimisiz? Yoki yangi zamon belgilari yorqin aks, fan va texnika yangiliklari natijasida bunyod etilgan osmono'par binolar ko'rinishi ishtirokida, yo bo'lmasa, ham ko'hna ham zamonaviy navkiron shahar ko'rinishi birgalikda aks ettirilgani ma'qulmi? Anna shular aniq fikrlab, rejalashtirib olingach, tasvirlash ob'ekti tanlanadi, uning qanday miqyosda bo'lishi belgilanadi. Eng muvofiq kurinishga ega bo'lgan joydan qarab turib, qalamchizgilar, ranglavxalar ishlanadi. Ish jarayonida bo'lajak manzara asarining kompozitsiya echimi, rang uyg'unligi, tugal namuna nusxasining katta kichikligi, qanday o'lchamda bo'lish masalalari ham puxta uo'lab hal qilinadi.

Tabiatni diqqat bilan ko'zatsangiz, uning ob'ektlari doim har xil yoritilganini ko'rasiz. Biriga quyoshning nurlari tug'ridan tik holatda tushadi, boshqasi esa

yonidagi narsalar soyasida qolgan bo'ladi. Ularning har birida tiniq yoritilgan qismini soyalarini, yarim soyalarini, refleks shu'lalarini ko'ramiz.

Tabiatdagi narsalarning hajmi ko'zimizga bo'rttirib ko'rinishi uchun uning bir tomoni yaxshi yoritilgan bo'lishi kerak. Yuqoridagi xolatda esa predmetning faqat yorug' tushgan tomonlarigina ko'zga tashlanadi, shuning natijasida narsa hajmi bo'rtib kurinmaydi. Manzarani tasvirlash ustida ish olib borish buyicha etarli malakaga ega bulmaganlarga bunday sharoitda narsalarning xajmini va fazoviyligini xaqqoniy tarzda tasvirlash juda qiyin bo'ladi, va nixoyat tabiatdagi narsalarga kuyosh nurlari assomga nisbatan yon tomondan tushgan holda esa, buyumlarni bir tomoniga tiniq yorug'lik tushib soyalar quyuq ko'rinadi. Barcha narsalarning xajmi bo'rtib turadi. Aynan yondan tushgan yorug'lik, rassomga, ayniqsa qulay va xoxishiga mos keladi.

Borliqdagi barcha narsalar inson ko'zidan o'zoqlashib borgan sari kichkinalashib ko'rinadi. Shunga muvofiq har bir tasviriy san'at asarida chiziqli hamda fazoviy prespektiva o'z aksini topish zarur. Uning qonunlarini bilmay turib birorta ham manzaraning ko'rinishini xatosiz tasvirlab bo'lmaydi. Manzara ishlashdan avval chiziqli prespektivaning asosiy qonunlarini diqqat bilan o'rganilishi lozim. Shuningdek tabiat ko'rinishini ishlash davomida fazoviy prespektiva xodisasiga ham jiddiy e'tibor berilishi lozim.

Rangtasvirning chiziqli prespektivasi talabiga muvofiq to'g'ri tasvirlanishi ufq chizig'ining qanday joylashishiga ham bog'liq. Shuning uchun uning doim to'g'ri aniqlab olish kerak. Manzarada ufq chizigg'i yuqorida ham, pastda ham bo'lishi mumkin. Ba'zida ufq chizig'i yuqorida bo'lgan manzara ko'rinishini ma'qul ko'rsalar, boshqalar aksincha, ufq chizig'i pastda bo'lganini ko'proq afzal biladilar.

Tabiatda hamda rassom tomonidan ishlayotgan rangtasvir sathida ham odatda osmon ko'p joyni egallaydi. Shuning uchun uni diqqat bilan o'xshatib tasvirlash kerak. Kunduzi quyoshning yorug'da uning rangi yuqorida to'roq, ufqqa yaqinlashgan sari oqarib ko'rinadi. Ufqning shunday tepasida esa osmon tumansimon bo'lib tuyuladi. Kupchilik xollarda osmon tabiatdan eng yorug' joy xisoblanadi. Albatta shunday paytlar ham bo'ladiki, unda ochiq rangli narsalar quyoshning o'tkir

nurlari ostida osmonda ham yorug’ bo’lib kurinadi. Ular binolarning devorlari, qora, oq gullar, odamlarning rangdor kiyimlari bo’lishi mumkin.

O’rganayotgan havaskor rassom, talabalarni ishlagan ranglavxa mashqlarida ko’pincha darahtlar bir - biriga juda o’xshash bo’lib qoladi. Bunday xol talaba ularni e’tiborsizlik bilan ko’zatish natijasida ro’y beradi. U ko’zatuvchanlikka odatlangandan so’ng xatto bir turga mansub daraxtlar ham har - xil bo’lishini, ayniqsa boshq - boshqa turdagi daraxtlar o’zining tuzilishi - shoxlarining joylashishi, novdalari hamda barglarining quyuq yoki siyrakligi, rangi, shakli, po’stlog’ining o’ziga hosligi va o’ziga monand belgilari bilan ajralib turishini yaxshi bilib oladi. Shunda u tasvir etgan ranglalavhxadagi daraxtlar: tolmi, terakmi, kayragochmi, archami yoki tutmi ekanligi bir qarashdayoq ma’lum bo’lib turadi.

Shuni alohida ta’kidlab o’tish kerakki ranglavxa, qoralama- qalamchizgi va katta hajimdagi bevosita tabiatdan qarab yaratilgan rangtasvir bilan manzara - kompozitsiya o’rtasida katta farq bor. Chunki tugallangan bekami – kust asar yaratishgacha bosib o’tadigan ijodiy yul mashaqqatli bo’lib, musavvirdan chidam va yuksak mahoratni talab etadi. Yuqorida birma- bir aytib o’tilgan jixatlarning asosiy va ikkinchi darajalisi bo’lishi mumkin emas. Odamlar tuygusiga ijobiy ta’sir etib, ichki kechinma va muloxazalar to’dira oladigan keng qamrovli, ma’lum kurinishga xos bo’lgan belgilar majmuasini o’zida mujassamlashtirgan, obraz darajasiga ko’tarilgan xaqiqiy asargina tomoshabinlar tahsiniga, olqishiga sazaovor bo’ladi.



P.Krilov manzara asarlarida kompozitsiya qonunlariga izchil rioya qilgan.

U pedagog rassom sifatida rangtasvirda tusning ahamiyati, o’z tajribalari asosida o’quv qo’llanmalar yaratgan.

Taniqli rassomlar naturadan tasvirlangan qalam – chizgilari, ranglavhalari keyinchalik yirik kompozitsiya asarlarida yordamchi material sifatida yordam bergan.

Bo’lajak rassomda har doim yon daftarcha, etyudnik, albom, qalam va rangli bo’yoqlar bo’lmog’i lozim.

Ular amaliy mashg’ulotlarda qalam, moybo’yoq, qora akvarel, sangina, tush, ko’mir, pastel kabi materiallardan unumli foydalanish mumkin.

Biz muzey ko’rgazma zallarda bo’lganimizda vujudimizni nafosat, go’zallik xislatlari to’lqinlantirib yuboradi. Ranglavha bajarish uchun molbert, gruntlangan karton, yoki mato podramniklar bo’lishi shart. Naturadan ishlash Bilan bir qatorda, tasavvurdan ishlash mashq qilishga odatlanish zarur. Tasavvurdan ishlash tabiat, borliqni kuzatish, eng xarakterli onlarni ilg’ab olishni shakllantiradi.



Tabiat tez o’zgaruvchan bo’ladi. Shuning uchun tez, rang vat us munosabatlarni aniqlash tavsiya etiladi. Bir joydagi imorat va daraxtlar turli ob-havo sharoitida har hil rang koloritida ko’rinadi.

Tabiatda etyud yozishni osmon ava uzoq plandan boshlashni tavsiya etiladi, masofa kengligi ifodalab, er tekisligi va old planni umumlashtirilib yaxlit bajariladi.

Detallarni maydalamasdan predmetlari yaxlit belgilanadi.

Ko’rish nuqtasini tanlashda predmetlarni gorizontal chekkasi kartinaning ichki orqa tomoniga qaratilgan bo’lsa, manzarada chuqurlik masofani anglashga yordam beradi.



Ufq chizig’i qog’ozni pastki qismida bo’lsa, havoni ko’proq ko’rsatishga va uni fonida baland predmetlarni tasvirlash imkoni tug’iladi.

Kompozitsiya kata yorug’ va to’q joylashtirish yorug’ nuqtasiga bog’liqdir. Yorug’ nuqtasini qaerga joylashtirsak, shunga qarab soya yoriqlari o’zgaradi. Shuning uchun tabiatdan rasm chizigan vaqtda quyosh harakati, ob – havo o’zgarishi Bilan hisoblashish kerak. Shuningdek manzara kompozitsiyada goh old planni goh orqa planni to’q yoki yorqin yorug’da tasvirlash mumkin.

Birinchi plandagi predmetlar aniq mayja soya, yorug’, refleks Bilan, orqa plandagi predmetlarni esa xiraroq umumlashtirib tasvirlanadi.

Shuning uchun dala amaliyotida rangtasvir va qalamtasvirda bajarish vazifalari kompozitsiya Bilan chambarchas bog’langan. Uni bir – biridan ajratib bo’lmaydi.

Kartinadagi asosiy rang munosabatlari havo perspektivasi Bilan bog'liqdir.

Oq tusdagi predmetlar uzoq masofada quyosh nurida rangi o'zgarib sarig' pushtiroq, soyada esa ko'kimtir (sovuq rang) bo'lib ko'rinadi.

Ko'k gunafsha, yashil rangli predmetlar orqa planda ko'kimtir tumanda o'zaro xiralashib ko'rinadi.

Shuning uchun birinchi rangli predmetlar orqa planda ko'kimtir tumanda o'zaro xiralashib ko'rinadi.

Shuning uchun birinchi planni issiqroq ranglarda, orqa planni esa sovuqroq ranglarda ko'ramiz. Sovuq tusdagi ranglar tomoshabinga uzoqda turgandek, issiq ranglar yaqinlashayotgandek tuyuladi.

Qadimgi san'at ustalarining manzara asarlari uch planga bo'linadi: old plan – jigarrang, o'ta plan – yashil va orqa plan – ko'k. Ular o'rtasidagi chegarani aniqlash qiyin hammasi kompozitsiya elementlari Bilan bir – biriga bog'langan.

Ochiq havoda ishlash har – xil tushayotgan reflekslarni inobatga olishni taqozo etadi, ayniqsa osmon, havodan tushadigan reflekslar kuchli bo'ladi.

Bunda qishning oftobli kunda qorning soya qismi ko'k rangda bo'ladi.

Quyoshli kunda odam gavdasi va imoratlarga er satxidan tushayotgan yorug' reflekslarni ko'ramiz. Yorqin libosli odam quyosh yoritib turgan maysadan yashil refleks, sariq qumli erda refleks albatta sariq bo'ladi.

Bulutlar quyoshga yaqin bo'lganda soya qismi havoda yorug' ko'rinsa, ufq chizig'iga yaqin joyda bulut soyasi xavodan to'q bo'lishi mumkin. Bulutlar umuman to'q ko'rinmasdan, lekin erning soya qismidagi ranglarga nisbatan ochroq bo'ladi. Bulutlarni tasvirlashda o'zgaruvchan shakllarni ko'pincha xayoldan tasvirlashga to'g'ri keladi. Shuningdek hovuz, ko'llardagi suv havoga nisbatan to'qroq ko'rinadi. Suvda aksi tushayotgan predmetlarni qirralari xira, ranglari bir – biriga yaqinlashadi.

O'rol Tansiqboevning «Ona o'lka» asarida diyorimizni go'zalligi tarannum etiladi. A. Rilovni «Moviy kenglikda» kartinasida his hayajon, ko'tarinki ruh sezilib

turadi. Agarda ko'rish nuqtasi aniq va juda to'g'ri tanlangan. Shuning uchun ufq chizig'i juda past bo'lib bepoyon kenglikni his etishni kuchaytiradi.

Bu kabi kompozitsiyalar echimida yaratilgan manzaralarni ko'plab misol keltirish mumkin. Manzara san'atini rivojlantirishda V. Yakovlevni «Transport yo'lga qo'yilmoqda» nomli asarida o'sha yillarda hukm surgan muhitni kompozitsiya echimida ustalik Bilan ochib berilgan.



Taniqli ijodkor O'. Tansiqboevning «Tog'dagi kolxoz» (1953) asarida yig'im – terim pallasi, so'lim tog' yonbag'irlaridagi bug'doy dala, jazirama issiqda kombayn yonida Xotin – qizlar, aravaga somon ortayotgan dehqon, juda mohirona tasvirlangan. Talabalar tabiatning turli fasllarida ijod qilishi mukammal o'rganishlari muhimdir. Ayniqsa darxat turlari, tuzilishi, kuzda barglarning har xil rangda bo'lishi, talabadan nihoyatda izchillik bilan naturaga yondoshishni talab etadi.

Shuningdek rejada talabalarning shahar manzarasini tasvirlash va yakuniy kompozitsiya bajarish vazifasi ham mavjud.

Shahar manzarasida imorat va transport vositalarini tasvirlash uchun ranglavha bajarayotganlarida naturaning mayda bo'laklariga e'tibor berish shart emas.

Tasviriy san’atning vazifasi naturadagi mavjud barcha mayda detallarni ko’chirmay, ongli ravishda manzaradagi kata predmetlarni kompozitsion to’g’ri joylashtirib yaxlit tasvirga erishishni talab qiladi.

Shahar manzarasidan kompozitsiyaga zarur material yig’ish oson emas. Ko’chadagi hayot, doim haraktdagi transport vositalari, odamlarni tasvirlash mushkul.

O’kuv vazifasi sifatida birinchi kurs bilan plenerda mavzuli natyurmort yozish maqsadga muvofiqdir. Hayotdan kelib chiqib, kata predmetlardan tashkil topgan natyurmortlarni tasvirlash, kompozitsiya eskizi variantlari ustida mashq qilish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

O’zbekistonlik rangtasvir ustalari S. Kolibanov, V. Ufimtsev, R. Axmedov, V. Lisov, E. Melnikov, Yu. Elizarov, G’. Abduraxmonov, L. Yunusov kabilar natyurmort janrida turli mavzuda ko’plab asarlar yaratib, respublika madaniy boyligiga o’z hissalarini qo’shdilar.

Talabalarni ijodiy qobiliyatini oshirishda yuqorida qayd etib o’tilgan taniqli rassomlar ijodlarini o’rganish maqsadga muvofiqdir.

Planerda odam gavda kompozitsiyasi ham muhim rol o’ynaydi. Yorug’ga qarshi o’tirgan modelni rangtasviri murakkab ish hisoblanadi.

Chunki gavdaning bosh qismi to’q tusda ko’rinadi. Old tomondan ishlanganda peshona, burun chekkasi, engak tagidagi soyalar, ko’z chuqurligidan yorug’ bo’lsa, hozirgi vaziyatda hammasi aksincha bo’ladi. Peshonasi to’q, burunni tagiga atrofdan refleks tushib, kala hajmi kichik bo’lib ko’rinadi. Yorug’ga qarshi qo’yilgan modelda atrofdan tushgan reflekslar ko’payib ketadi.

Shunday qilib qiyin vazifani mohirona echgan V. Serovni «Shaftolilik qiz», Nesterovni «Akademik I. Pavlov» va xirurg «S. Yudin» portretlarida ko’rishimiz mumkin.

Bu portretlarda bosh va qomatning rang munosabatlari aniq va nozik topilgan.

V. Serovning daraxt tagida o'tirgan «Qiz portreti», shuningdek, o'zbek rassomlaridan A.Abdullaevning «Sobir Abdulla», R.Ahmedovning «Ona o'ylari» portretlari plenerda o'ziga xos kompozitsiya echimiga ega.

Aziz alabalar, siz o'z oldingizga ma'lum vazifani qo'yib nihoyasiga etkazib chizing, chala ishlarni tashlab yubormang.

Taniqli rassomlar haqida yozilgan badiiy adabiyotlar, kundalik, esdaliklarni o'qing, muzeyda saqlanayotgan nodir asarlarni o'rganib ulardan o'zingizga xulosa chiqaring.

Ko'p rassomlar o'z uslubiga ega. V. Serov shular jumlasidandir. Kashf etgan usulda, portretlarni tez yozib maromiga etkazib bitkazar edi.

Shu portretlar orqali kelajak avlod, ulug' zotlarni, tarixda yashab o'tgan shaxslarni hayoti xaqida chuqur tasavvurga ega bo'ladilar. Serov portretni 30 seans yozsa, Velaskes va Gels tez, uzog'i bilan ikki seansda portretni bitirar edilar.

XIX asrda Rossiyada maishiy janr ijod etish rivojlandi. V. Perov, I. Repin, V. Makovskiy, N. Yarashenko, K. Savitskiy, G. Myasoedov kabi rassomlar o'z asarlarida xalqning kuch – qudratini, ichki – kechinmalari va iztiroblarini mohirona tasvirlagan.

O'zbekistonlik rassomlar Z.Kovalevskayaning «Lojada», N.Kashinaning «Doira chalayotgan qiz», R.Axmedovning «Tushki tanaffus», G'.Abdurahmonovning «Oila» asarlarida mavzuni chuqur anglash, milliy kolorit va kompozitsiya echimi aniq topilganligini o'rganish orqali o'quvchilarni kichik mutaxassislar qilib tayyorlash muhim hisoblanadi.

Quyida o'quvchilarning tasviriy san'atda kompozitsiya tuzishga o'rganish hamda mustaqil kelajakda rassom sifatida hisoblab, ijod qilishga yuksak darajadagi san'at asarlarini yaratishga yanada chuqurroq his etishga olib keladi (1-jadval).

**KXK o’quvchilarining manzara kompozitsiyasini tuzishda ijodiy faolligini oshirish bo’yicha olingan natijalar (1,2,3 bosqich o’quvchilari. Jami 632 nafar o’quvchi)**

1-jadval

| | O’quvchilar soni | O’zlashtirish darajalari | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Yuqori | O’rta | Past |
| Tajriba guruxlari | 304 | 122 | 166 | 16 |
| Nazorat guruxlari | 328 | 120 | 156 | 52 |

